



BIKARYER VA AN'ANAVIY OILALARDA OTA-ONANING KASBIY FAOLLIGINI FARZANDLARNING IJTIMOYI- PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Sanayeva Sogdiana Ziyadullayevna

O'zbekiston Toshkent sh.

sanayevasogdiana94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639697>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 14-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 18-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

bikaryer oila, an'anaviy oila, qadriyat tizimi, samarali reja, tarbiya, qadriyat tizimi

ABSTRACT

Ushbu maqola bikaryer va an'anaviy oilalarda ota-onaning kasbiy faolligi farzandlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga va qadriyatlar tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan yoritib beradi. Maqolada xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, shuningdek, O'zbekiston konteksti asosida oilaviy muhit va ota-onaning roli o'rganilgan. Bikaryer va an'anaviy oilalar o'rtasidagi farqlarni ochib beradi va farzandlar ijtimoiy-psixologik rivojlanishini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Tadqiqot dolzarligining asoslanishi. Zamonaviy jamiyatimizda iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya, gender tenglik siyosati va mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlar natijasida oilaning an'anaviy modeli o'rniga turli xil yangi oilaviy tuzilmalar shakllanmoqda. Ayniqsa, er-xotin ikkalasi ham kasbiy faoliyat boradigan bikaryer oilalarning ko'payishi nafaqat-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga, balki farzandlarning psixologik rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, bundan ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot va mehnat faoliyati o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy psixologiya sohasida katta e'tibor qozonmoqda. Ayniqsa, ikki karerali (bikaryer) oilalar sonining ortishi, oila a'zolarining rollari va farzand tarbiyasiga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga chiqaradi (Neal & Hammer, 2007; Lari, 2023). Shu bilan birga, an'anaviy oilalarda, ya'ni faqat bir tomon ishlaydigan oilalarda, ota-onaning kasbiy faoliyati va oilaviy qadriyatlar tizimi farzandlarning psixologik rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan turli xil, udum va an'analar bizga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda, shular jumlasidan ulardagi solishtirishlar, dunyo qarash nafaqat bazida ijobiy yoki salbiy, balki ijtimoiy-psixologik tomonlama ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Bikaryer oilalar mavzusi G'arb va xalqaro tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Neal va Hammer (2007) tadqiqotida, ikki karerali juftliklar bolalarni tarbiyalash bilan bir vaqtda qarilik yoshdagi ota-onalariga g'amxo'rlik qilish holatida "sandvich avlod" sifatida qaraladi. Ushbu vaziyat ish va oila o'rtasida muvozanatni saqlashni qiyinlashtiradi va ota-onaning stress darajasini oshiradi, bu esa bevosita farzandlar bilan muloqot va ijtimoiy-psixologik rivojlanishga ta'sir qiladi. Bu tadqiqotga qo'shilgan holda, yana bir misol keltirishimiz mumkin, bikaryer oilalarda vaqt reja asosida, an'anaviy oilalarda esa ko'proq uy yumushlariga farzandlarni jalb qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ish bilan band bo'lgan va moddiy taraflama farzandlarini pul bilan taminlagan ota-onaning farzandlari ham ular kabi erta tongda barvaqt

uyg'onib, maktabga borib, albatta maktabdan keyin qo'sgimcha to'garak va sport zallarga borishini kuzatishimiz mumkin. Yani, ular ota-onasini o'rnak sifatida ko'rishadi. O'zlariga nisbatan ishonch ham an'anaviy oilalardagi farzandlarnikidan ancha farq qiladi.

Fors ko'rfazi mamlakatlarida, xususan Qatarda, Noora Lari (2023) tadqiqotida ikki karerali oilalarda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ishtiroki, ish yuklamasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan belgilanadi, shuningdek jinslar o'rtasidagi farqlar ham aniqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, erkak va ayolning ish talablaridan kelib chiqib, farzandlar bilan o'tkazadigan vaqt va ota-onalik faoliyati farq qiladi. Bu esa qadriyatlar tizimi va oiladagi ijtimoiy muvozanatga ta'sir ko'rsatadi.

Ridha va Sakti Kaloeti (2024) tadqiqotida esa ikki karerali oilalarda farzandlarning psixologik farovonligi va oilaviy moslashuv jihati o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ota-onaning ishdagi bandligi va oilaviy majburiyatlar farzandlar bilan muloqot sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, ota-onaning qadriyatlar tizimi (masalan, mehnatsevarlik, oilaviy birga yashash, mas'uliyat) farzandlarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbek millatida esa, an'anaviy oilalarda ko'pincha erkak ishlaydi, ayol uy bekasi bo'ladi, va farzandlar tarbiyasida ayolning roli asosiy hisoblanadi. Hozirgi kunda shahar hududlarida juftliklarning ikkalasi ham ishlaydigan oilalar soni ortib bormoqda, bu esa oilaviy muvozanat va farzand tarbiyasida yangi qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda (Xolmatov, 2022). Bikaryer oilalar bilan solishtirganda, farzandlar bilan muloqot va oilaviy qadriyatlar tizimi ko'proq muvozanatni talab qiladi.

Bikaryer oilalarda ota-onaning kasbiy faoliyati farzandlar bilan muloqot va oilaviy qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkala ota-onaning ham ishda faol bo'lishi, farzandlar bilan o'tkaziladigan vaqtni kamaytiradi va ota-onaning stress darajasini oshiradi. Shunga qaramay, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqtni samarali rejalashtirish, oilaviy majburiyatlarni bo'lishish va sifatli muloqot farzandlarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini muvozanatli saqlashga yordam beradi (Neal & Hammer, 2007; Lari, 2023).

O'zbekiston shahar oilalarida ham, ayniqsa Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida, er-xotin ishlaydigan oilalar ko'paymoqda. Masalan, o'qituvchi er va hamshira ayol oilalarida ota-onaning ish soatlari baland bo'lsa, farzand bilan muloqot qisqaradi, lekin ota-onaning qadriyatlar tizimi (mehnatsevarlik, ta'limga e'tibor, oilaviy birlashuv) farzandlar rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Xolmatov, 2022).

An'anaviy oilalarda, odatda, faqat erkak ishlaydi va ayol uy bekasi bo'ladi. Bunday oilalarda farzandlar bilan muloqot ko'proq uy ichidagi faoliyat va ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Shahar va qishloq oilalarini solishtirganda, qishloq joylarda an'anaviy qadriyatlar kuchliroq saqlanib qoladi, bu esa farzandlar bilan oilaviy aloqaning mustahkamligini ta'minlaydi (Toshpulatov, 2021). Shuni inobatga olishimiz kerakki,

Farzandlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

1. Ota-onaning ish soatlari va kasbiy majburiyatlari
2. Oila ichidagi vazifalar taqsimoti
3. Qadriyatlar tizimi
4. Sifatli muloqot va ota-onaning hissiy qo'llab-quvvatlashi

Xulosa va tavsiyalar

Ushbu maqola ikki karerali va an'anaviy oilalarda ota-onaning kasbiy faoliyati farzandlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi va qadriyatlar tizimiga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

* Bikaryer oilalarda farzandlar bilan sifatli muloqot va qadriyatlar tizimini mustahkamlash muhim,

* An'anaviy oilalarda qadriyatlar va oilaviy barqarorlik asosiy omil sifatida saqlanadi.

* O'zbekiston shahar oilalarida ikki ishlaydigan ota-onali oilalar sonining ortishi oilaviy strategiyalarni takomillashtirishni talab qiladi.

Tavsiya qilinadi:

1. Bikaryer oilalarda ota-onalar uchun vaqtni boshqarish va oilaviy majburiyatlarni taqsimlash bo'yicha treninglar va qo'llanmalar ishlab chiqish

2. Farzandlar bilan sifatli muloqot va qadriyatlar tizimini mustahkamlashga yo'naltirilgan oilaviy dasturlar yaratish

3. An'anaviy va bikaryer oilalar tajribasini o'rganib, davlat va mahalliy darajada oilani qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarni takomillashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Neal, M.B., & Hammer, L.B. (2007). *Working Couples Caring for Children and Aging Parents*. Washington, DC: American Psychological Association.

2. Lari, N. (2023). Parental involvement in dual-earner families: Evidence from Qatar. *Journal of Family Studies*, 29(3), 215-230.

3. Ridha, R., & Sakti Kaloeti, S. (2024). Dual-career family dynamics and child well-being. *International Journal of Social Psychology*, 45(2), 98-112.

4. Chamlou, N., & Karshenas, M. (2016). Work-family balance in Gulf countries. *Middle East Economic Review*, 28(1), 45-67.

5. Xolmatov, A. (2022). O'zbekiston shahar oilalarida ikki ishlaydigan ota-onaning roli. *Toshkent Psixologiya Jurnal*, 5(2), 34-47.

6. Toshpulatov, S. (2021). An'anaviy oilalarda farzand tarbiyasi va qadriyatlar tizimi. *Samarkand Social Studies Journal*, 10(1), 22-36.